UO‘K 94 (575.1)

TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATINING O‘RNATILISHI VA SANOAT KORXONALARI BOSHQARUVIDAGI O‘ZGARISHLAR

(1918–1924-yillar)

E.D. Isomiddinov

Maqolada Turkiston ASSRda sovet hokimiyatining dastlabki yillaridagi xalq xo‘jaligining holati, sanoat sohasida vujudga kelgan murakkab vaziyat o‘rganilgan. Turkiston ASSRda yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish, sanoatga yangi siyosat chora-tadbirlarining joriy qilinishi, sanoatda mulkchilikning turli shakllari qo‘llanilishi natijasida sanoat ishlab chiqarishining jonlanish jarayoni yoritilgan. Sanoat ishlab chiqarishidagi o‘zgarishlar asosan Andijon uyezdi misolida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Turkiston o‘lkasi, bolsheviklar hokimiyati, sanoat, sanoat ishlab chiqarishi, paxta zavodlari, yangi iqtisodiy siyosat, natsionalizatsiya, Farg‘ona oblasti, Andijon uyezdi, hunarmandchilik.*

В статье рассматривается состояние народного хозяйства Туркестанской АССР в первые годы советской власти, особое внимание уделяется сложному положению промышленности. Анализируются процессы восстановления промышленного производства в условиях перехода к новой экономической политике, реализации её мер и использования различных форм собственности. Изменения в промышленной сфере Туркестанской АССР освещаются преимущественно на примере Андижанского уезда.

Ключевые слова: *Туркестанская АССР, советская власть, промышленность, промышленное производство, хлопкоочистительные заводы, новая экономическая политика, национализация, Ферганская область, Андижанский уезд, ремесленничество.*

KIRISH

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi uchun ham sanoat qurilishini rivojlantirish, qo‘shimcha qiymat yuqori darajada bo‘lgan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish mamlakatni taraqqiy ettirishdagi eng ustuvor masala sifatida kun tartibiga qo‘yilgan. Ushbu maqolada o‘rganilgan mavzuning dolzarbligi uning natijalari va umumlashmalari nafaqat tarix fani uchun, balki sovet davlatining XX asr birinchi choragida O‘rta Osiyo mintaqasi xalq xo‘jaligini rivojlantirish siyosati mohiyatini to‘g‘ri anglab yetish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning nazariy xulosalari va natijalari bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida agrosanoat majmuasini rivojlantirishning zamonaviy muammolarini hal qilishga, agrar va umuman iqtisodiy vazifalarni hal qilish jarayonida milliy manfaatlar hamda o‘zaro munosabatlarni uyg‘unlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Sovet davlatining 1920-yillarda Turkiston o‘lkasida sanoat qurilishidagi tarixiy tajribasi yo‘l qo‘yilgan ko‘plab xatolarni chetlab o‘tishga va shu bilan birga bu davrda to‘plangan tajribadan foydalanishga yordam beradi.

MATERIAL VA USULLAR

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida Turkiston Respublikasida sanoat sohasidagi o‘zgarishlar va sanoat qurilishi masalalari sovet hokimiyati yillarida ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilgan. Biroq bu tadqiqotlar boshdan-oyoq sovet mafkurasiga bo‘ysundirilgan, bolsheviklarning sanoat qurilishi sohasidagi siyosati faqat ijobiy jarayon sifatida yoritilgan. 1920-yillarda Turkistonda sanoat korxonalarining natsionalizatsiya qilinishi, xususiy mulkchilikka barham berilishi va uning og‘ir oqibatlari bu davr tarixshunosligida deyarli aks etmagan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida XX

asr 20-yillaridagi siyosiy o‘zgartirishlar, xususan, sanoat korxonalarining davlat nazoratiga olinishi, yirik sarmoyadorlar, xususiy tadbirkorlarning sovet tuzumi tomonidan tugatilishi kabi jarayonlarning salbiy oqibatlari ma’lum darajada tadqiq etilgan bir qator asarlar yaratildi [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7]. Bu tadqiqotlarda yangi manbalarga asoslangan holda, sovet tuzumining xususiy mulkka qarshi kurashi og‘ir oqibatlarga olib kelgani, Turkistondagi sanoat qurilishi faqat bir yoqlama xususiyatga ega ekanligi – qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga (asosan paxta) dastlabki ishlov beruvchi zavod-fabrikalardan iborat bo‘lgani haqida qarashlar bayon qilingan.

Biroq bu asarlarda ham Turkiston ASSRdagi sanoatlashtirish siyosatining barcha jihatlari to‘la yoritilgan emas, uning bir qator muammolari o‘zining ilmiy yechimini kutmoqda. Bu muammolarga oydinlik kiritishi mumkin bo‘lgan ko‘pgina materiallar O‘zbekiston respublikasi Milliy arxivi hamda viloyatlar arxivlarida saqlanmoqda, bu materiallar mazkur keng qamrovli muammoning turli jihatlarini xolisona yoritish imkonini beradi [8, 9, 10, 11, 13, 14, 15, 16, 19, 20, 21, 22, 24, 25, 26, 27].

Ushbu maqola tarixiylik va xolislik kabi umumilmiy tamoyillarga asoslanadi. Bu tamoyillar turli manbalardan, shuningdek, adabiyotlardan olingan ma’lumotlarni o‘zaro taqqoslash imkonini berdi. Tarixiylik tamoyili Turkiston o‘lkasining iqtisodiy va siyosiy holatini, uning butun ko‘rib chiqilayotgan davr mobaynidagi o‘zgarishini kuzatish imkoniyatini yaratdi.

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy va muammoli-xronologik usullardan foydalanildi, ular yangi faktlarni ilmiy muomalaga kiritish, XX asrning 20-yillarida Turkiston ASSRda sodir bo‘lgan jarayon va hodisalarni dinamikada ko‘rib chiqish hamda ularning muhim oqibatlarini aniqlash imkonini berdi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

O‘zbekistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik harakati (“bosmachilik”) 1925-yilga kelib yakunlanishi bilan respublikada xo‘jalik qurilishining yangi bosqichi boshlandi. Sovet mamlakatida tinch hayot sharoitiga o‘tish murakkab jarayon edi, chunki u nafaqat markaziy hududlar, balki mamlakatning chekka hududlari, jumladan, Turkiston uchun ham xos bo‘lgan o‘ta murakkab ichki va xalqaro vaziyatda amalga oshirildi, bu yerda o‘tish davrining umumiy qiyinchiliklaridan tashqari o‘zining qo‘shimcha, o‘ziga xos qiyinchiliklari paydo bo‘ldi. Xo‘jalik vayronagarchiligi bu yerda eng og‘ir ko‘rinishlarda ko‘zga tashlandi, chunki Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida bir tomonlama rivojlangan va metropoliya bilan doimiy aloqalarga muhtoj bo‘lgan o‘lka iqtisodiyoti, ayniqsa, Turkiston Rossiya markazidan iqtisodiy jihatdan uzilib qolgan yillarda juda katta zarar ko‘rdi. Bu yillarda Turkiston o‘lkasidagi ishchilarning soni ikki baravarga kamaydi. Turkiston qishloq xo‘jaligining ahvoli deyarli halokatli edi.

Turkiston respublikasining tinch qurilishga o‘tishi nihoyatda murakkab vaziyatda kechdi. Mamlakat ko‘p yillik fuqarolar urushlari va chet el interventlarining bosqini natijasida xonavayron bo‘lgan edi. Sanoat, transport, qishloq xo‘jaligi, savdo – xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari halokatli ahvolda edi. Xo‘jalik vayronagarchiligi mamlakatning markazini ham, chekka hududlarini ham, jumladan, Turkistonni ham qamrab olgan edi. Fuqarolar urushi Turkistonning mamlakat markazidan vaqtincha uzilib qolgan yillarida uning aholisi va iqtisodiyotiga katta zarar yetkazdi. O‘lka sanoatining yalpi mahsuloti 1920-yilda urushdan oldingi darajaning zo‘rg‘a 20 foiziga yetdi [8. B. 35]. Toshko‘mir qazib olish 1916-yildagi 9720 ming puddan 1920-yilda 1600 ming pudgacha, neft esa 2140 ming puddan 530 ming pudgacha tushib ketdi [9. B. 58]. Ayniqsa, urush va sovetlarga qarshi qurolli harakat paxtani qayta ishlash bilan bog‘liq sanoatga katta zarar yetkazdi. 1917-yilda Turkistonda faoliyat ko‘rsatgan 275 ta paxta, yog‘-moy va sovun zavodlaridan 1920-yil oxirida faqat 27 tasi ishlab turar edi [10. B. 224–225]. Birgina Farg‘ona viloyatining o‘zida 184 ta zavoddan 96 tasi vayron bo‘lgan, 71 ta korxona talangan va qisman evakuatsiya qilingan; faqat 17 ta zavod qoniqarli holatda saqlanib qolgan edi [11. B. 13].

1921-yilga kelib, sovet davlatida yangi iqtisodiy siyosat (NEP)ning asosiy tamoyillari ishlab chiqildi, sovet rahbariyati tomonidan mamlakat xalq xo‘jaligini tiklash uchun “harbiy kommunizm” siyosatidan yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish zarurligi nazariy jihatdan asoslab berildi. Bolsheviklar rahbari V.I.Leninning fikricha, yangi iqtisodiy siyosatning mohiyati shundan iborat ediki, qishloq xo‘jaligini yuksaltirishni ta’minlash uchun, mamlakatning butun iqtisodiyotini tiklash va yanada rivojlantirishni qishloq xo‘jaligidan boshlash lozim edi, dehqonlarni o‘z xo‘jaliklarini yuritishni yaxshilashga qiziqtirish zarur edi. Biroq bu siyosat sovet rahbariyati tomonidan faqat vaqtinchalik chora sifatida tatbiq etildi [12. B. 42].

Turkistonda yangi iqtisodiy siyosatga o‘tishning bir qator o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, bu yerda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar mavjud edi. Shaharlarda ham, qishloqlarda ham ishchilar qatlami aholining umumiy tarkibida sezilarli darajada kam salmoqqa ega bo‘lib, RSFSR markazidagi ishchilar

qatlamiga qaraganda ancha kam va uyushmagan edi. Ayniqsa, ishchilarning anchagina qismini hunarmand-kosiblar tashkil qilardi. 1920-yillar boshida Turkistonda yer-suv munosabatlarida avvalgi an'analar saqlanib qolgan, ya'ni yerga nisbatan xususiy mulkchilik mavjud bo'lib, bu sovetlar nazariyasiga tamoman zid hisoblanardi. Qishloq xo'jaligi sohasida ham Turkiston iqtisodiyoti ko'p ukladli bo'lib, har bir ukladning salmog'i bir-biridan farq qilar edi.

Yangi iqtisodiy siyosatning tamoyillari RKP(b)ning 1921-yil 8–16-martda bo'lib o'tgan X syezdi qarorlarida ko'rsatib o'tildi. Bu syezd qarorlaridan kelib chiqqan holda, Turkistonda ham sovet hukumati "harbiy kommunizm" siyosatidan yangi iqtisodiy siyosatga o'tish chora-tadbirlarini ko'ra boshladi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tishda Turkiston kompartiyasining 1921-yil 10–20-avgust kunlari bo'lib o'tgan VI syezdi muhim ahamiyatga ega bo'lib, syezd Turkiston sharoitida yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo'lini belgilab berdi [3. B. 179].

Turkiston ASSR sovetlarining X syezdi (1921-yil 21–25-avgust) RKP(b) X syezdi va TKP VI syezdi qarorlari asosida Turkistonda yangi iqtisodiy siyosatni o'tkazish bilan bog'liq vazifalarni aniqlashtirdi. Respublika xalq xo'jaligini yangi iqtisodiy siyosat tamoyillariga muvofiq tiklash qishloq xo'jaligi sohasida ham, sanoat sohasida ham keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturini ko'zda tutardi [7. B. 155].

Sanoatda davlat korxonalariga rahbarlik qilish usullarini o'zgartirish, ularni boshqarish shakllarini takomillashtirish, ya'ni sanoat korxonalarini trestlarga birlashtirish, tiklash va rivojlantirish maqsadida ularning bir qismini ijaraga berish, ishlab chiqarishni xo'jalik hisobi asosida qayta qurish, ayrim tarmoqlar faoliyatini davlat tomonidan rejalashtirish, korxonalarning tashabbuskorligini rag'batlantirish, ishchilarning ish haqini yaxshilash kabi chora-tadbirlar ko'zda tutildi.

Bu keng ko'lamli dasturni bajarishda Turkiston shaharlari sanoat va madaniyat markazlari, qishloqqa otaliq yordami ko'rsatishning boshlanish o'choqlari sifatida katta rol o'ynadi. Uni amalga oshirishda Andijon ham o'z hissasini qo'shdi. Tiklanish davrining boshlariga kelib, Farg'ona vodiysining boshqa shaharlari kabi Andijon iqtisodiyoti ham respublikaning boshqa sanoat markazlariga qaraganda ko'proq tushkunlikka uchragan edi. Buning asosiy sababi shunda ediki, fuqarolar urushi va birinchi navbatda, "bosmachilik" harakatlari natijasida Farg'ona oblastidagi sanoat korxonalarining 90 foizdan ortig'i ishdan chiqqan edi [13. B. 12]. Mavjud sanoat korxonalari paxtachilikning ahvoliga qaram bo'lib, paxtachilik inqirozga uchragani sababli xomashyodan mahrum bo'lgandi. Ushbu holatlar qishloq xo'jaligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan sanoatni tiklash sur'atlarining sekinlashishiga va Turkiston ASSRning boshqa shaharlaridan farqli o'laroq, butun Farg'ona vodiysida sanoat ishlab chiqarishini tiklash ishlarining kechroq boshlanishiga sabab bo'ldi. Boshqa bir tomondan zarur kapital mablag'larning yo'qligi, xomashyo bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi bilan bir qatorda, Farg'ona vodiysida 1925-yilgacha saqlanib qolgan qurolli qarshilik harakati sanoatni qayta tiklash ishlariga jiddiy to'sqinlik qildi. Chunki vodiyning aksariyat hududlarida sovet hukumatining ta'siri qolmagan edi.

Xalq xo'jaligini tiklash davri boshlariga kelib, Andijon shahri ishlab chiqarish bo'limi ixtiyorida mexanika ustaxonalari, g'isht, pivo, muz zavodlari, shahar elektr stansiyasi, mix ishlab chiqarish ustaxonasi, kimyo korxonasi mavjud edi. Bundan tashqari, shaharda bir nechta paxta va yog' zavodlari mavjud bo'lib, ular Paxta qo'mitasi tomonidan boshqarilgan [14. B. 4].

Xalq xo'jaligi markaziy komiteti (XXMK) mablag' yo'qligi sababli o'z ixtiyorida faqat uchta to'qimachilik fabrikasini, shu jumladan, ishlab chiqarishni jihozlash va tashkil etish bo'yicha Farg'onadagi eng yaxshi fabrikalardan biri hisoblangan Andijon fabrikasini qoldirgan edi. Unda 60 ta to'quv stanogi va 7 ta jun tarash mashinasi bo'lib, ulardan 1922-yil boshida hammasi bo'lib 40 tasi ishlab turgan. Fabrika asosan jun va yarim jun gazlamalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi.

Andijon shahridagi korxonalarning bir qismi ijaraga berilgan, 1923-yilga kelib, ular orasida g'isht zavodi va ichak zavodi, mahalliy tipdagi ikkita tegirmon va kushxona bor edi. Xo'jalik hisobiga o'tkazilgan korxonalar orasida shahar bosmaxonasi va elektr stansiyasi ham bor edi [15. B. 586].

1923-yildan boshlab Farg'ona vodiysida paxta yetishtirish sezilarli darajada ko'paygach, uni qayta ishlash bilan bog'liq korxonalar – paxta tozalash va yog' zavodlari nisbatan tez sur'atlar bilan faoliyat ko'rsata boshladi. 1923-yil o'rtalarida Andijondagi 6-son yog'-sovun zavodi ham qayta tiklandi. U qo'shimcha ravishda qayta jihozlandi va ishga tushirilgan kuni "Qizil O'zbekiston" nomini oldi [16. B. 2]. Shuningdek, 1923-yilda pivo zavodi ishga tushirildi, tamaki fabrikasi rekonstruksiya qilindi.

Urush davrida vayron qilingan Andijon-Namangan temir yo'lining qayta tiklanishi shahar sanoatining rivojlanishida, paxtachilik va butun Farg'ona viloyati paxta sanoatining jonlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1924-yil oxirida temir yo'l ishlay boshladi [17]. Andijonda eski sanoat korxonalarini tiklash bilan bir qatorda yangilarini qurish ishlari ham olib borildi. 1924-yilda Paxta qo'mitasi Andijonda va Toshloq qishlog'ida ikkita paxta tozalash zavodini qurishga

kirishdi. Andijon paxta zavodi sobiq “Paxta-Bosh” zavodi o‘rnida qurilib, zavodni eng yangi Amerika tizimi bo‘yicha jihozlash rejalashtirilgan edi. Andijon stansiyasidan zavodga kirish yo‘li qurildi. 1920-yillar boshida qurilgan 920 ot kuchiga ega 2 ta dizel va 1 ta gidravlik elektr stansiyasi shaharning energetika bazasini yaratishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi [18. B. 53].

1924-yil oxirida O‘rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi o‘tkazilib, uning natijasida Andijon, Namangan, Qo‘qon va Farg‘ona uyezdlari O‘zbekiston SSR tarkibiga kiritildi.

Respublikaning boshqa shaharlarida bo‘lgani kabi Andijonda sanoat korxonalarini tiklash ishlab chiqarish jarayonini yo‘lga qo‘yish, mahsulot ishlab chiqarishning bir maromda bo‘lishini ta’minlash, mehnatni yaxshiroq tashkil etish, xomashyo va energiyani tejash rejimiga rioya qilish ishlari bilan birga olib borildi. Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish munosabati bilan respublikaning xalq xo‘jaligida katta rol o‘ynagan Andijonning an’anaviy hunarmandchilik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ham ko‘rildi. 1921-yil yozidan boshlab Turkiston sovet hukumati tomonidan hunarmandchilik sanoati ishini yangi sharoitlarda qayta tashkil etishni ko‘zda tutuvchi bir qator chora-tadbirlar ko‘rildi.

Hunarmandchilik sanoati xususiy korxonalar shaklida ham, kooperatsiya shaklida ham erkin rivojlana boshladi. Hunarmandlarni kooperativlarga birlashtirish uchun turli imtiyozlar berish, kooperativlarga kirganlarni rag‘batlantirish kabi choralar tatbiq etildi. Ya’ni, kooperativlarga uyushgan hunarmandlarga soliq yuki kamaytirildi, kooperativ uyushmalarini xomashyo bilan ta’minlashda yengilliklar berildi.

1921-yil 1-fevralda Andijonda hunarmandlarning I konferensiyasi bo‘lib o‘tdi, konferensiya “barcha hunarmandchilik buyumlarini davlatga topshirish”ni zarur deb topdi. Bu maqsadga erishish uchun hunarmandchilik artellari a’zolari o‘rtasida keng targ‘ibot ishlarini olib borishga qaror qilindi [19. B. 264].

Andijonda hunarmandchilik sanoatini rivojlantirishda 1922-yil 22-fevralda bo‘lib o‘tgan IX Farg‘ona viloyat partiya konferensiyasi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. U hunarmandchilik sanoatini tashkil etish, hunarmandlarni xomashyo bilan ta’minlash va tayyor mahsulotlarini sotishda yordam berish masalalariga jiddiy e’tibor qaratdi. Hunarmandchilik kooperatsiyasi hunarmandlarni tashkil etishning eng maqsadga muvofiq shakli deb topildi. Andijon uyezdi, shu jumladan, Andijon shahridagi hunarmandlarning aksariyati “Sanoat” hunarmandlar Ittifoqiga birlashtirilgan bo‘lib, ular bu uyushma orqali xomashyo olib, o‘z mahsulotlarini sotganlar. Rayonlararo hunarmandchilik-sanoat Ittifoqi Andijonda 1924-yilda tashkil etildi. Uning nizomi Farg‘ona oblast ichki savdo tresti tomonidan ro‘yxatga olinganda, ittifoq a’zoligiga 8 ta hunarmandchilik birlashmasi qabul qilingan, ularga Andijonning eski shahar qismi aholisidan 300 nafar a’zo ham kirgan. 1925-yilda hunarmandchilik-sanoat Ittifoqi faoliyati ba’zi qishloq rayonlari – Izboskan va Qo‘rg‘ontepani ham qamrab oldi. 1926-yilda ittifoqqa birlashgan artellar soni 27 taga yetdi, ularning a’zolari 1825 kishidan iborat edi. Jami artellarning 5 tasi qishloqlarda, qolganlari Andijon shahrida faoliyat ko‘rsatgan [20. B. 70].

Andijon hunarmandchilik artellari asosan qishloq xo‘jaligi qurollari, manufaktura, kiyim-kechak va boshqa xalq iste’moli mollarini ishlab chiqarardi. Masalan, 1926-yilda davlat organlarining buyurtmasiga asosan ular tomonidan 2735 dona bo‘yinturuqli omoch, 50 komplekt ot abzali, 7 ming dona o‘roq, 30 ming dona ketmon, shuningdek, ko‘p miqdorda ip-kalava va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan [21. B. 94]. Ishlab chiqariladigan tovarlar nomenklaturasi shundan dalolat beradiki, qayta tiklanish davrida qishloq xo‘jaligining yuksalishiga xizmat qiladigan va xalq iste’moli sanoat mollari taqchilligining o‘rnini to‘ldira oladigan hunarmandchilik tarmoqlarini rivojlantirishga eng katta e’tibor qaratilgan.

Andijon sanoatining tiklanishi va rivojlanishi ishchilar sinfining o‘sishini rag‘batlantirdi, ularning mehnat faolligini oshirdi. Yangi ish haqi siyosati olib borildi. Uning miqdori mehnat unumdorligiga bog‘liq qilib belgilandi. Ishchilar mehnatiga natural haq to‘lash pul to‘loviga almashtirildi. Mahalliy millat vakillaridan ishchilar sinfi kadrlarini tayyorlashga jiddiy e’tibor qaratildi.

Xalq xo‘jaligini qayta tiklash davrida Andijon sanoat korxonalari hali nisbatan kam quvvatli bo‘lganligi sababli, ularda ishlovchilar soni unchalik ko‘p emas edi. Masalan, 1922-yilda Andijon to‘qimachilik fabrikasida ishchi va xizmatchilar soni 170 kishini tashkil etgan. Qayta tiklash davrining ikkinchi yarmida elektr stansiyasida 27 nafar, bosmaxonada ham deyarli shuncha, g‘isht zavodida esa 57 nafar ishchi ishlagan. Andijon shahridagi 6-sonli “Qizil O‘zbekiston” nomli yog‘ zavodida 500 nafar ishchi va xizmatchi bo‘lgan, paxta tozalash zavodlarida o‘rtacha 100–120 kishi ishlagan, yangi paxta hosili topshiriladigan mavsumda esa ularning soni 300–400 kishigacha yetgan [22. B. 313].

Andijonda ham, respublikaning boshqa shaharlarida bo‘lgani kabi paxta tozalash sanoati ishchilari soni eng tez sur’atlar bilan o‘sib bordi. 1922-yil 1- yanvardan 1925-yil 1-yanvargacha ularning soni deyarli 6 barobar ko‘paydi [23. B. 347]. Biroq ishchilar sinfi sonining umumiy o‘sishiga qaramay, mahalliy millatga mansub ishchilarning ulushi yuqori emas

edi. Chunonchi, Andijon okrugi bo‘yicha 1925-yilda sanoatning asosiy tarmoqlarida ular atigi 31 foizni tashkil etgan bo‘lsa-da, ayrim korxonalarda, masalan, Andijon yog‘-sovun zavodida ularning salmog‘i ko‘proq – 60 foizgacha yetgan. Faqat tiklanish davrining oxiriga kelib, mahalliy partiya va jamoat tashkilotlari, shuningdek, korxonalar rahbarlari tomonidan milliy kadrlar tayyorlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar tufayli ularning soni ishchilar umumiy kontingentining faqat yarmiga yetdi.

Paxta tozalash sanoati korxonalarida Farg‘ona viloyatidagi bitta zavodning (Andijon korxonalarini ham qo‘shib hisoblaganda) o‘rtacha unumdorligi 1913- yildagi 186 ming pudga nisbatan 1924-yilda 374 ming pudni tashkil etdi. Shu davr ichida bitta ishchining ish unumdorligi 197 foizga oshdi [24. B. 240]. Masalan, Andijondagi “Qizil O‘zbekiston” yog‘-sovun zavodi kuniga 15–16 ming pudgacha chigitni qayta ishlab, to‘la quvvat bilan muvaffaqiyatli ishladi. Zavodning 1924–1925-yildagi faoliyati to‘g‘risidagi hisobotda qayd etilganidek, zavod ishchilari yoqilg‘i sarflashda qat’iy tejamkorlikka rioya qildilar, bekor turib qolishlar sonini eng kam darajaga tushirdilar, rejani oshirib bajardilar [25. B. 93].

Ayni yillarda Turkiston Respublikasida otaliq harakatini rivojlantirish bo‘yicha ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Bu harakat 1922-yil oxiri – 1923-yil boshlarida boshlandi, lekin darhol ommaviy tus olmadi. Vaqt o‘tishi bilan u kengayib, tobora aniqroq tashkiliy shakllarga ega bo‘lib bordi, respublika, viloyat va uyezd otaliq komissiyalari, shuningdek, korxonalarda partiya, komsomol, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat otaliq komissiyalari tuzildi. Otaliq ishining xususiyati ham ma’lum o‘zgarishlarga uchradi – dastlab qishloqqa ommaviy shanbaliklar va yakshanbaliklar paytida, ishlab chiqarish-xo‘jalik masalalarini hal etishda yordam ko‘rsatildi, 1923-yildan boshlab esa unda madaniy-ma’rifiy ishlarni olib borishga ko‘proq e’tibor qaratila boshlandi.

Andijonda, respublikaning boshqa shaharlari singari, bir qator korxonalarning ishchilari, garchi uyezd otaliq komissiyasi tiklanish davrining oxirida tuzilgan bo‘lsa-da, otaliq ishiga jalb qilindi. Ayniqsa, “Qizil O‘zbekiston” yog‘ zavodida otaliq ishlari yaxshi tashkil etilgan edi. 1925-yilda bu yerda otaliq komissiyasi tuzilib, u Haqqulobod volosti qishloqlarida homiylik tashkil etdi [26. B. 46]. “Qizil O‘zbekiston” ishchilari Chimyon volosti qishloqlarini ham otaliqqa oldilar. U yerda homiylar kuchi bilan yaxshi jihozlangan choyxona va klub ochildi. Yog‘ zavodi ishchilaridan shaharning boshqa korxonalari – shahar elektr stansiyasi, bosmaxona, pivo zavodi ishchilari ham o‘rnak olib, o‘z otalig‘idagi muassasalarga katta yordam ko‘rsatdilar.

Xalq xo‘jaligini tiklash davrida ishchilarning moddiy turmush sharoitini yaxshilashga ma’lum darajada e’tibor berildi. Bunda ish haqining oshirilishi kabi omil muayyan rol o‘ynadi. Andijonda ishchilarning o‘rtacha ish haqi 1924-yildan 1925-yilgacha deyarli ikki baravar oshdi. 1925-yil sentabriga kelib temir yo‘l ishchilarining ish haqi 1924-yil oktabriga nisbatan 15 foizdan 50 foizgacha oshdi. Sovet hokimiyati organlari, ayrim korxonalar va muassasalar ishchilarning turmush sharoitini yaxshilash uchun maxsus mablag‘lar ajratdi. Masalan, 1921-yil aprel oyida Andijon uyezd-shahar ijroiya qo‘mitasi prezidiumining qarori bilan 1922- yilgi ekin mavsumiga qishloq xo‘jaligi asbob-uskunalarini tayyorlash bilan band bo‘lgan ta’mirlash ustaxonalari ishchilari uchun qo‘shimcha 3 million rubl ajratildi [19. B. 24]. Biroz oldin, 1921-yil mart oyida ijroiya qo‘mitasi To‘qimachilik uyushmasi ixtiyoridagi barcha oziq-ovqat mahsulotlarini, ayniqsa, yog‘ni shahar oshxonalari ishchilari uchun zudlik bilan topshirishga qaror qilgan edi. Ishchilar mehnatini muhofaza qilishni yaxshilash, korxonalarda xavfsizlik texnikasiga rioya qilish choralari ko‘rildi. Ishchilar birinchi navbatda uy-joy bilan ta’minlandi, ularning kvartiralari ta’mirlandi, yoqilg‘i bilan ta’minlandi. Mehnatkashlar ahvolini yaxshilashda sanoat mollari narxining pasayishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1927-yilda narxlar 3 foizga, shu jumladan chit, movut, shakar va boshqalar uchun pasaytirildi [27. B. 66].

XULOSA

Umuman, yangi iqtisodiy siyosatga o‘tilishi bilan Turkistonda shaharlardagi savdo-sotiq ishlari ham sezilarli darajada jonlandi. Chunki xususiy kapital nafaqat sanoat, balki savdo sohasiga ham kirib bordi. Sovet hukumati xususiy savdo erkinligiga ma’lum darajada yo‘l qo‘ygan bo‘lsa-da, ayni vaqtda chakana savdoning davlat nazoratidagi shakllarini mustahkamlashga, xususiy kapitalni siqib chiqarishga qaratilgan siyosat olib bordi, eng avvalo, davlat va kooperativ savdosini rivojlantirishga intildi. Savdo tarmoqlari respublikaning deyarli barcha shaharlarida rivojlandi, 1925-yilga kelib respublikada bir necha yuzlab yirik va mayda korxonalarni qamrab oldi. Ayniqsa, Turkistonda bu yillarda an’anaviy bozorlar jadal rivojlandi, bu bozorlarda xususiy savdo davlat savdosiga qaraganda ancha katta salmoqqa ega edi.

Farg‘ona vodiysidagi, shu jumladan, Andijonda xalq xo‘jaligini tiklash jarayoni bir qator sabablar – vodiyda 1925-yilgacha faoliyatda bo‘lgan sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat, Farg‘ona vodiysi

uchun an’anaviy bo‘lgan paxta tozalash va yog‘-moy sanoatini tiklashning katta mablag‘ talab qiladigan paxtachilikni tiklashga chambarchas bog‘liqligi, shuningdek, tiklanish davrining umumiy qiyinchiliklari – mablag‘, kadrlar yetishmasligi va boshqalar tufayli O‘zbekistonning boshqa shaharlariga qaraganda kechroq boshlanib, sekinroq kechdi.

Adabiyotlar:

1. *Ғойибназаров Ш.* Ижтимоий ривожланиш сабоқлари: 20-йиллар таҳлили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 192 б.

2. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865–1990 йиллар). / Лойиҳа раҳбари ва масъул муҳаррир Д.А.Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 432 б.

3. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. / Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.

4. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости. / Коллектив авт.: Р.М.Абдуллаев, С.С.Агзамходжаев, И.А.Алимов и др. – Ташкент: Шарк, 2000. – 672 с.

5. *Ражабов Қ., Ҳайдаров М.* Туркистон тарихи (1917–1924 йиллар). – Тошкент: Университет, 2002. – 167 б.

6. *Shamsutdinov R., Karimov Sh.* Vatan tarixi (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). Uchinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010. – 496 b.

7. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккита китоб. Биринчи китоб. Ўзбекистон 1917–1939 йилларда. / Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – 560 б.

8. Ўзбекистон Миллий архиви (ЎзМА), Р-27-фонд, 1-рўйхат, 496-иш.

9. ЎзМА, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 1206-иш.

10. ЎзМА, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 735-иш.

11. ЎзМА, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 503-иш.

12. *Поляков Ю.А.* Переход к НЭПу и советское крестьянсто. – Москва: Наука, 1967. – 512 с.

13. Андижон вилоят давлат архиви, 90-фонд, 1-рўйхат, 66-иш.

14. АВДА, 90-фонд, 1-рўйхат, 69-иш.

15. АВДА, 59-фонд, 1-рўйхат, 104-иш.

16. ЎзМА, Р-736-фонд, 1-рўйхат. 143-иш.

17. Туркестанская правда. 1924 г., 13 октября.

18. *Сафаров Р., Мухитдинов М., Джалалов Д.* Андижанская область. – Ташкент: Узбекистан, 1973 – 144 с.

19. АВДА, 59-фонд, 1-рўйхат, 39-иш.

20. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви Андижон вилоят бўлими, 93-фонд, 1-рўйхат, 129-иш.

21. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси архиви Андижон вилоят бўлими, 93-фонд, 1-рўйхат, 169-иш.

22. АВДА, 59-фонд, 1-рўйхат, 203-иш.

23. История Узбекской ССР. Том 3. Победа Великой Октябрьской социалистической революции и построение социализма в Узбекистане (1917-1937 гг.). / Отв. ред. Р.Х. Аминова и др. – Ташкент: Фан, 1967. – 707 с.

24. ЎЗМА, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 789-иш.

25. АВДА, 59-фонд, 1-рўйхат, 496-иш.

26. АВДА, 3-фонд, 1-рўйхат, 7-иш.

27. АВДА, 159-фонд, 1-рўйхат, 292-иш.

ESTABLISHMENT OF SOVIET POWER IN TURKESTAN AND CHANGES IN THE MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

(1918–1924)

Erali D. Isomiddinov

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2026. 5(97). 24-31.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: Turkestan region, Bolshevik rule, industry, industrial production, cotton mills, New Economic Policy, nationalization, Fergana region, Andijan district, handicrafts.

Changes in the industrial sector and issues of industrial construction in the Turkestan Republic during the early years of Soviet rule were examined in numerous scientific studies throughout the Soviet era. However, these studies were entirely subordinated to Soviet ideology, and Bolshevik policy in the field of industrial construction was portrayed solely as a positive process.

With the end of the armed resistance movement against Soviet rule in Uzbekistan in 1925, a new stage of economic construction began in the republic. The transition to peaceful living conditions in the Soviet state was a complex process, as it took place under extremely difficult circumstances characteristic not only of the central regions but also of Turkestan, where, in addition to the general difficulties of the transition period, additional, specific challenges emerged.

By 1921, the fundamental principles of the New Economic Policy (NEP) were developed in the Soviet state, and the Soviet leadership theoretically justified the need to transition from the policy of "war communism" to the New Economic Policy in order to restore the country's national economy. The transition to the New Economic Policy in Turkestan had a number of specific features, as complex socio-economic relations existed in the region. The working class in both cities and villages accounted for a significantly smaller share of the total population, being much smaller and less organized compared to the working class in the center of the RSFSR.

Measures were planned to change the management methods of state enterprises in the industrial sector and improve their management forms, namely by uniting industrial enterprises into trusts, leasing a portion of them for restoration and development purposes, restructuring production based on self-financing, and improving workers' wages.

Starting in 1923, as cotton cultivation in the Fergana Valley increased significantly, processing enterprises-cotton ginning plants and oil mills-began to operate at a relatively rapid pace. The handicraft industry began to develop freely, both in the form of private enterprises and as cooperatives. To unite artisans into cooperatives, measures such as providing various benefits and incentivizing those who joined were implemented. Namely, the tax burden on artisans organized into cooperatives was reduced, and concessions were granted in supplying cooperative associations with raw materials.

Between 1921 and 1924, a certain amount of attention was paid to improving the material living conditions of workers. Factors such as wage increases played a specific role in this. In Andijan, the average wage of workers almost doubled from 1924 to 1925. By September 1925, the wages of railway workers had increased by 15 to 50 percent compared to October 1924.

References:

1. Goyibnazarov, Sh. (1994). *Ijtimoiy rivojlanish saboqlari: 20-yillar tahlili* [Lessons of social development: Analysis of the 1920s]. Tashkent: O'zbekiston.

2. Alimova, D.A. (ed.) (2000). *Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865–1990-yillar)* [The policy of the totalitarian regime to plunder the national wealth of Uzbekistan: evidence and lessons of history (1865-1990)]. Tashkent: Shark.

3. Jo‘rayev, M., Nurullin, R., Kamolov, S. et.al. (2000). *O‘zbekistonning yangi tarixi.* Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida [Modern History of Uzbekistan. Book Two. Uzbekistan during the Soviet colonial period]. Tashkent: Shark.

4. Abdullayev, R.M., Agzamhodzhayev, S.S., Alimov, I.A. et.al. (2000) Turkestan v nachale XX veka: k istorii istokov nacional’noj nezavisimosti. [Turkestan at the beginning of the 20th century: towards the history of the origins of national independence]. Tashkent: Shark.

5. Rajabov, Q., Haydarov. M. (2002) *Turkiston tarixi* (1917–1924-yillar) [History of Turkestan (1917-1924)]. Tashkent: Universitet.

6. Shamsutdinov, R., Karimov, Sh. (2010) *Vatan tarixi* (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). Uchinchi kitob [History of the Homeland (Uzbekistan during the Soviet colonial period). Book Three]. Tashkent: Shark.

7. Abdullayev, R.M., Rahimov, M., Rajabov, Q. et.al. (2019). O‘zbekiston tarixi (1917-1991-yillar). Birinchi kitob. O‘zbekiston 1917–1939-yillarda [History of Uzbekistan (1917–1991). Book one. Uzbekistan in 1917-1939]. Tashkent: O‘zbekiston.

8. O‘zbekiston Milliy arxivi [National Archive of Uzbekistan (NA of Uz.)]. Fund R-27, List 1, File 496.

9. NA of Uz. Fund R-25, List 1, File 1206.

10. NA of Uz.. Fund R-25, List 1, File 735.

11. NA of Uz. Fund R-25, List 1, File 503.

12. Polyakov, Y.A. (1967). *Perekhod k NEPu i sovetskoe krest’yansto* [The transition to the NEP and the Soviet peasantry]. Moscow: Nauka.

13. Andijon viloyat davlat arxivi [Andijan Regional State Archive (ARSA)]. Fund 90, List 1, File 66.

14. ARSA. Fund 90, List 1, File 69.

15. ARSA. Fund 59, List 1, File 104.

16. NA of Uz. Fund R-736, List 1, File 143.

17. (1924) Turkestanskaya Pravda. October 13.

18. Safarov, R., Muxitdinov, M., Djalalov, D. (1973) Andijanskaya oblast’ [Andijan region]. – Tashkent: Uzbekistan.

19. ARSA. Fund 59, List 1, File 39.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Andijon viloyat bo‘limi [Archive of the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan, Andijan Regional Branch]. Fund 93, List 1, File 129.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Andijon viloyat bo‘limi [Archive of the Administration of the President of the Republic of Uzbekistan, Andijan Regional Branch]. Fund 93, List 1, File 169.

22. ARSA. Fund 59, List 1, File 203.

23. Aminova, R.H. (ed.) (1967). Istoriya Uzbekskoj SSR. Tom 3. Pobeda Velikoj Oktyabr’skoj socialisticheskoj revolyucii i postroenie socializma v Uzbekistane (1917-1937 gg.) [History of the Uzbek SSR. Volume 3. The Victory of the Great October Socialist Revolution and the Construction of Socialism in Uzbekistan (1917–1937)]. Tashkent: Fan.

24. NA of Uz. Fund R-25, List 1, File 789.

25. ARSA. Fund 59, List 1, File 496.

26. ARSA. Fund 3, List 1, File 7.

27. ARSA. Fund 159, List 1, File 292.

Muallif haqida ma’lumot:

ISOMIDDINOV Erali Darvishaliyevich – Andijon davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi. E-mail: isomiddinov2003@mail.ru